



## BIRINCHI SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDA IFODALANGAN HIKOYALARNI KREATIV TOPSHIRIQLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH METODIKASI

*Adizova N. B., Bobomurodova Sh.  
Buxoro davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** kreativ, ijodkorlik, kategoriya, Olti shlyapa, milliy dastur, interfaol metodlar, lingvistik kompetensiyalar, ma'nodosh, zid ma'noli, uyadosh so'zlar.

**Ключевые слова:** креатив, творчество, категория, Шесть шляп, национальная программа, интерактивные методы, лингвистические компетенции, синонимы, антонимы, вложенные слова.

**Key words:** creative, creativity, category, Six hats, national program, interactive methods, linguistic competences, synonyms, antonyms, nested words.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o'sha jamiyat fuqarolarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog'liq. O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy va kasbiy asoslari to'g'risida fikr yuritib, istiqlol sharoitida yoshlarning bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil fikrga ega bo'lgan, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniquqan, kasbiy mahoratini mustaqil vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifalardan biridir. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to'laqonli shakllangan shaxsda o'z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg'usi bo'ladi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi.



Albert EnshTEyn “Tasavvur-bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishonuvchan, tashqi ta’sirlarga beriluvchan bo‘ladilar. Buyuk allomamiz ta’kidlaganlaridek, kishining fe’l-atvori hammadan ko‘ra hayotning dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo‘lgan sifatlar, mustahkam o‘rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarini tarkib toptirish, yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun mas’uliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur yosh davrida o‘qituvchining har bir gapi, har bir hatti-harakati ta’sir ko‘rsatish uslubi uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o‘quvchilar o‘qituvchilariga qattiq ishonadilar, uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik nazokatidan jiddiy ta’sirlanadilar, talablariga hamisha amal qiladilar, u bergan topshiriqlarni bekami-ko‘st bajarishga intiladilar.

Bugungi ta’lim tizimida ham aynan shu jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan quyidagi hikoyada kreativ yetkazish orqali o‘quvchilar ongiga kirib borish va yaxshi saqlanib qolishini ta’minlash mumkin. Misol tariqasida “Hoshimjonning oilasi” hikoyasini “Sehrli qalpoqcha” filmi yoki mutifilmini eslatish orqali obrazli tushuntirish mumkin.

Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish, isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda filologiya fanlari doktori M. Ayimbetov ham o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga doir o‘z fikrlarini bayon etish bilan bir qatorda pedagogning shaxsiy va kasbiy faoliyati masalalariga to‘xtab o‘tgan. Olim “kreativlik” va “ijodorlik” tushunchalarini bevosita qo‘llanmagan bo‘lsa ham, ijodkor o‘qituvchining sifat ko‘rsatgichlarini yoritib berishga doir fikrlarni bayon etgan. Olim mahoratli zamonaviy o‘qituvchining strukturaviy komponentlarini ko‘rsatib bergan.

1-sinf darsligidagi yana bir hikoyani kreativ yoritib o‘quvchilar ongida obrazli saqlanib qolishiga erishish mumkin. Masalan, “Abrorning bir kuni” hikoyasini yetkazishda har bir o‘quvchining o‘z kun tartibini so‘ragan holda



hikoya qahramoni Abrorning kun tartibi bilan solishtirishni va shu orqali qiziqarli eslab qolishga erishish mumkin.

Ijodkorlikni yuzaga keltirish uchun stereotiplarning ongosti darajasida ijoddan cheklovchi funktsiya, shablonlardagi to'siqni anglash, qoliplardan voz kechish zarur. Kumir, brend va modaga ergashish mustaqil fikr kushandasi hisoblanadi. Kiyinish, o'zini tutish, kasb tanlash, hatto fikrlashdagi taqlid bunyodkorlik faoliyatidan cheklashi mumkin. Shuning uchun nega aynan shu kiyimni tanladim, nima uchun shu ichimlikni xarid qilyapman, deb OAV, reklama orqali inson ongiga majburan singdirilayotgan ta'sirlardan voz kechish mustaqil qaror qabul qilishga, media qurshovidan chiqishga sabab bo'ladi.

G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Eng ajablanarli jihati, ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Enshteynning maktabdan haydalihi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi.

"Olti shlyapa" usuli. Edvard de Borno taklif etgan "Olti rangli shlyapa" usulida biror mavzu tanlanadi. Navbatma-navbat shlyapalar kiyiladi: oq - diqqat bilan, hech qanday emotsiyasiz barcha faktlar tekshiriladi; qora - kamchiliklar aniqlanadi; sariq - mavjud holat tahlil etiladi; yashil - yana yangi bir necha g'oyalar qo'shiladi; qizil - emotsional munosabat bildiriladi; ko'k - ish xotimalanadi. Masalan, boshlang'ich sinfda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ifodalangan hikoyalarni ushbu kreativ topshiriqdan foydalanib tahlil



qilish mumkin. Bundan tashqari, bu usulni bolalar tiliga moslashtirib juda ko‘p topshiriqlarni samarali yetkazishda foydalanish mumkin.

Uolt Disneyning kreativ fikrlash nazariyasi. Uolt Disney ko‘ngilochar sohada o‘z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlari bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi - hayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya’ni, xayolparast rolida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bu jarayonda u Baxning “Tokkata, fuga re minar” musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlar yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg‘unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi — barchasini konstruktor sifatida jonlantiradi, reallashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko‘rib chiqadi. Tanqidchi “filtr” vazifasini bajaradi. Uolt Disneyning yutug‘i xayolparast, realist, tanqidchini bitta shaxsda jamlay olganidir. Odatiy fikrlovchilarda ularning bittasi ustuvorlik qiladi.

Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytingizda ijodkorlik chegaralarini belgilang. O‘zingizdan “Eng oddiy yechim nimada?” deb so‘rang. Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti”ni tasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o‘rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo‘ldi. Endi yangi g‘oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

Tasodiflarga befarq bo‘lmang. Juda ko‘plab ixtirolar favqulodda va tasodifiy holatlarda amalga oshirilgan. Ya’ni, taqdirning o‘zi insonga nozik ishoralar beradi. Bu Isaak Nyutonning boshiga tushgan olma, antibiotikni kashf etgan olim Aleksandr Flemingning yuvilmay qolib, mog‘orlagan laboratoriya idishlari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan narsalarni bog‘lash. Mobil telefon va kompyuter imkoniyatlarini birlashtirish orqali planshet, yuk mashinasiga antenna o‘rnatilib ko‘chma stansiya, qayiqqa osib qo‘yilgan mato tufayli yelkanli kemalar paydo bo‘lgan. Shotlandiyalik shifokor J.Danlopning o‘g‘li tosh yo‘ldan velosipedda yurib qiynalar edi. Danlop bog‘ini shlang bilan sug‘ora turib, uning yengil prujinasimon sakrashiga e’tibor berdi. Natijada birinchi bo‘lib shinani kashf etdi.

Shuningdek, kreativlikning mikro va makrosignallarini anglash, uning inson fiziologiyasi bilan bog‘liq jihatlari, ya’ni qanday holatlarda inson xayoliga yangi fikrlar kelishini bilish ham muhimdir.

Demak, boshlang‘ich sinfo‘quvchilariga ta’lim va tarbiya berish jarayonining har bir nuqtasida har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning har birining yuragiga ijodkorlik bilan mohirona yo‘l topa olishi



vaholanki bola shaxsiga ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samarali yo'llarini axtarish, qidirib topish va bu borada ilmiy tatqiqot ishlarini olib borish pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kreativlik nafaqat o'quvchilarda balki har bir insonning yopiq, yashirin qirralarini ochib, yuzaga chiqishiga turtki beruvchi kuchdir. Undan to'g'ri foydalanish inson hayotiga yangi g'oyalar yangi kashfiyotlar kirib kelishiga yo'l ochadi.

#### Adabiyotlar:

1. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60.
2. Melibayeva, R. N., Khashimova, M. K., Narmetova Yu, K., Komilova, M. O., & Bekmirov, T. R. (2020). Psychological mechanisms of development students' creative thinking. *International journal of scientific & technology research*, 9(03).
3. Avezova R.R. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini shakllantirish yo'llari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 4/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7.*
4. 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi. Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qurbonov, Shokir Tursun.
5. M.M. Madraximova Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyatini shakllantirish muammolari va metodlari. *Mag.diss. Nukus*, - 2014.
6. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. «Interfaol mashqlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish.» *E Conference Zone*. 2023.
7. Nodira, Adizova. «Creative activity of students in mother language teaching methodology lessons importance of development.» *Open Access Repository 4.04 (2023)*: 53-56.
8. Adizova, N. B., and S. U. Olimova. «Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil qilishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati.» *The Role of Sciences in the Formation of Unusual Thinking Skills in Young Students: International Scientific-Practical Conference (Czech)*. 2023.
9. Nodira, Adizova. «Creative activity of students in mother language teaching methodology lessons importance of development.» *Open Access Repository 4.04 (2023)*: 53-56.

#### РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada birinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida ifodalangan hikoyalarni kreativ topshiriqlar asosida tahlil qilish metodikasi haqida fikr yuritiladi. Kreativ shaxsni tarbiyalash – ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni haqida gap boradi.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается методика анализа рассказов, изложенных в учебнике родного языка и чтения для первого класса, на основе творческих задач. Воспитание творческой личности заключается в содержании формирования и развития устойчивых творческих качеств человека в процессе обучения творчеству и творческому самовыражению.

#### SUMMARY

This article discusses the methodology of analyzing the stories presented in the first grade mother tongue and reading literacy textbook based on creative tasks. Educating a creative person is about the content of formation and development of stable creative qualities in a person in the process of teaching creativity and creative self-expression.